

Paxtachi tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yuzasidan 2025 yil 1-chorak bo'yicha hisobot

Bugungi kunda mamlakatimizda, xususan, tumanimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning barchasi eng avvalo xalqimizni rozi qilish, aholi turmush darajasini yanada yaxshilash, bandlikni ta'minlash va barcha sohalarda barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashga qaratilgan.

Hozirda tumanimizda 33 mingdan iborat xonodon, 45 mingdan iborat oila. 155 mingdan ortiq aholi istiqomat qilmoqda.

Rasmiy band bo'lган aholi soni 56 ming kishini, ishsizlar soni 3 ming kishini, migrantlar 1,4 ming kishini, kambag'al oilalar soni esa 1730 tani tashkil etadi.

Joriy yilda kambag'allik darajasini (7,9 %dan) 2,7 foizga, ishsizlikni (5,8 %dan) 5 foizga tushirishni maqsad qilganmiz.

O'tgan yilda sanoat ishlab chiqarish hajmi 970,4 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lib, joriy yilda 107,5 foizga o'sish sur'atlarini ta'minlashimiz kerak.

Joriy yil I chorakda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 135,3 mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yil mos davriga (287,2 mlrd.so'm) nisbatan o'sish sur'ati 61,8 foizni tashkil etdi.

Buning asosiy sababi, yirik sanoat korxonasi hisoblangan "Paxtachi klaster" MCHJga bankrotlik e'lon qilingan va korxona faoliyatini to'xtatgan.

II chorak yakuni yoki yarim yillikda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 384,3 mlrd.so'mga yoki 66,4 foizga o'sish sur'atlarini ta'minlashni reja qilganmiz. Yil yakuniga qadar sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi tumanda 107,5 foizga o'sishi ta'minlanadi.

Xizmatlar ko'rsatish hajmi 2024-yilda 750,9 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lib, joriy yilda ushbu ko'rsatkichni 867,5 mlrd so'mga yoki o'sish sur'atini 115,5 foizga yetkazish rejalashtirilgan.

I chorakda xizmatlar hajmi 253,2 mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yil mos davriga nisbatan 104,7 foizga o'sishi ta'minlandi.

Qurilish pudrat ishlari hajmi 2024-yilda 183,9 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lib, joriy yilda ushbu ko'rsatkichni 197,6 mlrd so'mga yoki o'sish sur'atini 107,5 foizga yetkazish rejalashtirilgan.

I chorakda qurilish pudrat ishlari hajmi 88,5 mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yil mos davriga nisbatan 117,6 foizga o'sish ta'minlandi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish hajmi 2024-yilda 2 274,5 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lib, joriy yilda ushbu ko'rsatkichni 2 754,5 mlrd so'mga yoki o'sish sur'atini 117,5 foizga yetkazish rejalashtirilgan.

I chorakda hajm 335,9 mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yil mos davriga nisbatan 101,7 foizga o'sish ta'minlandi.

I chorakda eksport (6,2 mln) va xorijiy investitsiya jalb etish (10,7 mln) rejalar, shuningdek, mahalliy budgetga tushumlar rejasiga (23,3 mlrd so'm) to'liq bajarildi. Yil yakuni bilan qiymati 595 mlrd so'mlik 39 ta hududiy investitsiya loyihamalarini amalga oshirish hisobiga 1 774 ta ish o'rni tashkil etish reja qilingan.

Xususan, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi 6 ta loyiha doirasida 64,5 mln dollarlik

to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar o‘zlashtiriladi, I chorakda 10,7 mln dollarlik investitsiya o‘zlashtirildi.

Dasturdan tashqari, yana qo‘srimcha 6 ta loyihalar shakllantirilgan.

Ishsiz aholini bandligini ta’minalash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilab olingan.

Tumandagi 51 ta mahallalarda 33 172 ta xonodon, 45 526 ta oilalar mavjud bo‘lib, shundan, 2 747 tasi kam daromadli oilalar hisoblanadi.

Tumanda kambag‘allik darajasi 8 foizni tashkil etib, yil yakuniga qadar bu ko‘rsatkichni 5,0 foizga tushirishni reja qilib olganmiz.

Bugungi kunda, tumanimizda aholi soni 154 772 nafarni, shundan mehnat resurslari 75 596 nafarni tashkil etib, iqtisodiy faol aholi 59 055 nafarni tashkil etadi.

Ulardan 55 705nafari (94,3 foiz) ish bilan band. Yil boshida ishsizlar soni 3 440 nafarni, ishsizlik darajasi 5,8 foizni tashkil etgan edi.

O‘tgan 5 oy yakuni bilan ishsizlarning 5,1 ming nafari bandligi ta’minaldi.

Yil yakuniga qadar 16 035 nafar fuqarolar bandligi ta’minalanadi.

2025-yil uchun tumanda 2 360 ta mikroloyihalar tashkil qilish rejorashtirilgan bo‘lib, 5 oy davomida 1 095 ta, ya’ni 46,4 foizga loyihalar ishga tushirildi va 2 201 nafar fuqarolarni doimiy bandligi ta’minaldi.

2025-yil yakuniga qadar 2 400 ta mikroloyihalar ni ishga tushirib, 4 800 ta yangi ish o‘rni va aholi bandligi ta’minalishini rejorashtirganmiz.

2025-yilda tumanni rivojlantirishga 517 mlrd.so‘m mablag‘ ajratilgan, uning asosiy qismi yoki 395,3 mlrd so‘mini bank kreditlari, 107,5 mlrd so‘mini budgetda ko‘zda tutilgan mablag‘lar, jumladan 32,5 mlrd so‘mi tashabbusli budget va mahalla budgetini, 1,1 mln dollari Xalqaro moliya institutlari mablag‘lari hisoblanadi.

Birgina tumanda “Zarbdor tajribasi” asosida sanoat, qishloq xo‘jaligi hamda xizmat ko‘rsatish yo‘nalishlarida tadbirkorlikni rivojlantirish va aholi bandligini ta’minalashga turki beruvchi 6 ta drayver loyihalar ni yil yakuniga qadar ishga tushirib, ushbu loyihalarda 450 ta yangi ish o‘rnlari va budgetga qo‘srimcha 9,6 mlrd so‘m soliq tushumlari tushurilishi rejorashtirilgan.